



## МАКТАБГАЧА ТА‘ЛИМ TASHKILOTLARIDA EKOLOGIK TARBIYA

*Adilbaeva G. Ye.*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Maktabgacha ta'lim fakulteti 2 kurs talabasi*

**Tayanch so‘zlar:** ekologiya, maktabgacha yoshdagi bolalar, madaniyat, tushuncha, ta’lim, tarbiya, maktabgacha ta’lim tizimi, ekologik tarbiya.

**Ключевые слова:** экология, дошкольники, культура, понимание, образование, воспитание, система дошкольного образования, экологическое воспитание.

**Key words:** ecology, preschool children, culture, understanding, education, upbringing, preschool education system, ecological upbringing.

Bugungi kunda insoniyatni xavf ostida qoldi rayotgan hodislardan biri ekologik vaziyat hisoblanadi. Jamiyatni ng atrof-muhit bi lan o‘zaro buzilgan aloqasi keng jamoatchilik o‘ratsida katta tashvish uyg‘otmoqda.

O‘zbekiston Respubl ikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida «Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburlirlar», 55 moddasida esa «Yer osti boyliklari, suv, o‘simlik, va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muxofazasidadir» deyilgan.

Insonning tabiiy boyliklardan haddan tashqari oshiqcha foydalanishi oqibatida sayyoramizning qiyofasi o‘zgarib bormoqda. Yashil o‘rmonlar siyraklashib, o‘simlik va hayvonot turlari kamaymoqda, foydali qazilma boyliklari tugab bormoqda. Suv xavzalari va atmosferaga havosining ifloslanishi, chiqi ndi moddalarni ng ortib borishi natijasida aholini oziq-ovqat bilan ta‘minlash, enyergiya va chuchuk suv muammolari borgan sari murakkablashmoqda. Oqibatda, million-million yillar davomida turg‘un bo‘lgan tabiiy holatga putur etmoqda.

Ekologik bilim - bu tirik tabiatning tuzilishi, rivojlanishi, o‘zgarishi, yer yuzidagi tirik jonzo t larning holati, ularning bir-birlari va atrof-muhit o‘rtasida bo‘ lib turadigan munosabatlarni, tabiiy boyliklarning son va sifatini, xajmini,



xillarini hamda ularni saqlash va tejamkorlik bilan foydalanish yo‘llarini o‘zlashtirishdan iboratdir.

Inson tabiatga, o‘zini o‘rab olgan muhitga nisbatan o‘z munosabatini o‘zgartirishi, tabiat qonunlarini bilishi, o‘rganishi va ular asosida o‘z hayotini rivojlantirishi shart. Tabiat qonunlariga mos keladigan hayot yo‘llarini ishlab chiqish kyerak. Aks holda inson va jamiyat katta tabiiy ofatlarning kelib chiqishiga sababchi bo‘ladi va shu ofatlardan halok bo‘ladi.

Ekologik ta‘lim va tarbiyaning tub ma‘nosi - tabiat va jamiyat o‘rtasidagi doimiy birlik va ularni bir-birlariga bug‘luvchi tabiiy hamda ijtimoiy qonunlarni o‘rganish, hayotga tatbiq qilishdan iboratdir.

Ekologik ta‘lim va tarbiya - bu insonni tabiatga qadam qo‘ygan vaqtdan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, psixologik, axloq odob yuzasidan halqimizning tabiatga hurmat va e‘tibor bilan qaraydigan urf odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarni ko‘paytirish, bog‘u-rog‘lar, gulzorlar tashkil qilishga undashdan, uning qalbida yaxshi xislatlar uyg‘ otishdan iboratdir.

Insonni o‘rab turgan tabiiy muhit va uning boyliklarini biladigan, undan tejamkorlik bilan foydalanadigan, saqlaydigan, tabiat boyligiga, go‘zalligiga qo‘shadigan, ijtimoiy va tabiiy qonunlarni biladigan bilimdon shaxsni etishtirish - bu ekologik tarbiya maqsadi.

O‘rta asrlarda yashab ijod etgan Sharq al lomalaridan Muhammad Muso al Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Byeruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalar tabiat fanlarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o‘simliklar va hayvonot dunyosi, tabiatni e‘zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar.

Tabiatshunoslikka oid «Kitob al-mabodi al-insonia», «Kalam fia’zo al hayvon» kabi asarlarida odam va hayvonlar ayrim a’zo larining tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida, ularning o‘xshashligi va farqlari keltirilishi bilan birga, asosiy anatomik fiziologik tushunchalar byerilgan. Ularining ruhiy holatlaridagi xususiyatlari haqida ham to‘xtalib o‘tilgan. Kasalliklarining oldini olish, sog‘lomlashtirish va boshqa chora-tadbirlarni qo‘llash lozim ekanligi haqida ma’lumotlar keltiriladi.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun bir qator vazifalarni hal qilishga to‘g‘ri keladi.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarimizga ekologik tarbiya byerishda ularning yashab turgan joyi (tabiati) va boyliklarini tejab-tyergashga, ularni ongli ravishda muhofaza qilishga o‘rgatish.



2. Ekologik madaniyatni shakllantirish. Bu, eng avvalo, oiladan boshlanmog‘i lozim. Bu haqda mazkur bobning birinchi paragrafida ma‘lumot keltirildi.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalardagi ekologik madaniyatni shakllantirishda quyidagi jihatlarga alohida e‘tibor byerilib borilmog‘i lozim:

4. atrofni ifloslantirish kishilarga kasalliklarini olib keluvchi manba bo‘lishligiga;

5. Yong‘in oqibatlarining tabiatga zarari va yong‘in chiqmaslik choratadbirlarini ko‘ra bilishlikka o‘rgatish;

6. «suvga tuflama, uni iflos qilma», degan da‘vatning mazmun mohiyatini bilishlikka;

7. gullab turgan mevali daraxtning shoxini sindirmaslik, uning mevasidan insoniyat foydalanishligi hayotiy ehtiyoj ekanligi haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga va shu kabi- larga.

Ekologik savodxonlikni shakllantirish. Bunga talaba yoshlarga ta‘limtarbiya byerishda hayotiy misollardan foydalangan ma‘qul.

1. Dam olishga chiqilganda o‘t-o‘lanlarning payhon qilinishi va bu joylarda shisha siniqlarining qolishi jamiyat, tabiat va kishilar salomatligiga ta‘siri oqibatlari haqida maktabgacha yoshdagi bolalar ongida tasavvurlarni shakllantirish;

2. Daraxtlar, o‘simliklar olamiga va hayvonlarga nisbatan murosasizlik bilan munosabatda bo‘lish oqibatlarining tabiat va jamiyatga zararli ta‘sirini maktabgacha yoshdagi bolalar ongiga singdirish;

3. Zavod va fabrikalardagi zararli chiqindilarning insoniyat taraqqiyotiga ta‘sirini va uning oqibatlarini maktabgacha yoshdagi bolalar ongiga singdirishning axborot-kommunikatsion texnologiyalarini yaratishga yerishish;

4. Bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi barcha fanlarni o‘qitishda ekologik tarbiyani olib borish;

5. Auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda va ekskursiya hamda sayohatlarda ekologik tarbiyani olib borish;

6. Fanlarni o‘qitishda maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik muammolarni o‘rgatish orqali ularda tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanishga oid byeriladigan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologiya haqidagi tushunchalar va qonuniyatlar to‘g‘risida bilim byerish. Bunda mehnat muhofazasi, tabiatni asrash, noyob jonzotlar ro‘yxati, tabiat va atmosferadagi inqirozlar oldini olishga oid tushunchalar va qonuniyatlarga e‘tibor byeriladi.

Demak, maktabgacha yoshdagi bolalar ekologik tarbiyasidan ko‘zlangan maqsadlardan biri - bir to‘mondan - muqaddas Ona zaminimizni ozoda



qilib saqlash bo'lsa, ikkinchi to'ondan - musaffo osmonimizni aslidagi- dek saqlashdan iborat. Bu ona diyorimizni obod etishga qo'shiladigan katta hissa bo'lib, uning yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarda obodonchilik va orastalik, pokizalik va tejamkorlik, xushxulqlik va xushmuomalalik kabi insoniy fazilatlar shakllanadi. Bular maktabgacha yoshdagi bolalarda quyidagi ekologik qonuniyatlar va tushunchalarni ongli ravishda anglashni kafolatlaydi:

1. Tabiat haqidagi tushuncha, tabiiy muhit, tabiiy o'illar va ular orasidagi bog'lanish;

2. Tabiat boyliklaridan tejab-tyergab foydalanish va ularni muhofaza qilish;

3. Atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash;

4. Tabiatni kelajak avlodlar uchun qanday boisa, o'shandayligicha qoldirishga intilish va shu kabilar. Uzoq tarixga nazar tashlaydigan bo'sak, Markaziy Osiyo xalqlari.

Jumladan, o'zbeklar ham jahondagi eng qadimiy xalqlardan hisoblanadi va ular jahon ilm-faniga, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligining guvohi bo'amiz. Ota-bobolarimizning bu boradagi qoldirgan boy ma'naviy myerosi milliy myerosimizni chuqur, har taraflama o'rganishimizga va u haqda xolisona fikr bildirishga hamda O'zbekiston mustaqilligiga yerishuvida buyuk ma'naviy ozuqa bo'ldi yoki ota-boboiarimiz qoldirgan milliy qadriyatlarimizni tiklash va ularni targ'ib qilishga keng imkoniyatlar yaratildi.

«Respublikamiz mustaqillikka yerishgandan so'ng, ekologik tarbiyada xalq pedagogikasidan foydalanishga katta e'tibor byerib kelinmoqda. Atrof-muhitni muhofaza etish, moddiy boyliklardan oqilona foydalanishga oid tarbiyani milliy qadriyatlar va an'analar, sharqona urf-odatlar orqali byerish ehtiyojii paydo bo'ldi.

Tarbiyachining bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya byerishda xalqimizning o'ziga xos milliy tarbiyasidan o'rinli foydalanishi yaxshi samara byeradi. Milliy tarbiyamizda to'rt narsa - yyer, suv, tuproq, havo muqaddas hisoblangan. Xalqimiz juda qadim zamonlardan suvga e'tiqod qo'yib, yozning eng jazirama kunlarida «Suv sayli» otkazgan. Ota-bobolarimiz «Suv - tabiat in'o'i, hayot manbayi», deb bejiz aytmagan. Har to'chi suvni gavhardek qadrlab, bog'-rog'lar yaratishgan. Biz esa suvdan xo'jasizlarcha foydalanishimiz natijasida Orol muammosining tug'ilishiga sababchi bo'ldik. Sirdaryo va Amudaryoning belgilangan yyerga to'la yetib bormasligi natijasida bugun O'rta Osiyo uchun ahamiyatli bo'gan Orolning butunlay yo'qolish xavfi paydo bo'ldi».

Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya byerishda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, marosimlar, nodir qo'lyozmalar va davlat arboblarining ushbu sohaga oid faoliyatlari mustahkam didaktik asos bo'lib,



bular orqali ularni atrof-muhitni toza saqlashga, ozodalikka, pokizalikka va eng asosiysi sog'lo' turmush tarzi hamda muhitini tashkil eta olishga o'rgatiladi.

Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan taraqqiyoti darajasi undagi xalq xo'jaligining turli jabhalariga ta'sir etadi. Bu borada o'ziga xos global va mintaqaviy ekologik muammolar ham yuzaga kelavyeradi. Bunda global muammolarga Orol fojiasi, Chyernobil halokati, Xirosima va Nagasaki shaharlardagi bomba portlashlar hamda shu kabilar misol bo'la olsa, zavod va fabrikalardan chiqadigan zararli chiqindilar yoki ma'lum hududdagi tuproq yerroziyasi, ba'zi kasalliklarning ko'payishi va shu kabilarni misol qilib olish mumkin.

Shu sababli ekologik tarbiya yo'nalishlari ham turli xil bo'ldi. Quyida ularning ba'zilarini to'g'risidagi ma'lumotlar keltiramiz:

1. Maktabgachayoshdagi bolalarniyashabtganganjoyidagitabiatimizboyliklari nitejab-tyergashga, unimuhofazaqilishgao'rgatish.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'z o'quv muassasalarini va uning tevarak-atroflarini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish, mevali va manzarali daraxtlar ekishga o'rgatish.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xiyobonlarni, suv havzalarini ozoda saqlash ko'nikmalarini shakllantirish.

4. Ekologik dunyoqarashni yuksaltirish.

5. Ekologik madaniyatni shakllantirish.

6. Ekologik savodxonlikni yuksaltirish.

7. Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida atrof-muhit va uning shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.

8. Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida tabiat va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni haqidagi tasavvurlarni paydo qilish.

9. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya byerishda o'quv muassasaiari va oila o'rtasidagi umumiylik va xususiylik.

10. Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida atrof-muhit muhofazasida bolalarning vazifasi haqida tasavvur hosil qilish.

11. Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida tabiatni muhofaza qilishda otaona ibrat-namunasi haqidagi tasavvurlarni hosil qilish.

12. Maktabgacha yoshdagi bolalarni oiladagi, o'quv muassasasidagi o'simliklar va hayvonot dunyosini e'zozlashga o'rgatish, jonivor va qushlarni parvarish qilishdagi bilim va ko'nikmani yuksaltirish.

13. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya byerishda milliy an'ana va urf-odatlarini tiklashga e'tibor qaratish.



14. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya byerishda to‘garaklardan foydalanish va ularda «Tabiat va inson», «Ekologiya va inson», «Orol madad so‘raydi», «Tabiatni e‘zozlaylik», «Suvni muqaddas deb bilaylik» va shu kabi mavzularda davra suhbatlari uyushtirish.

Demak, havo inson tanasi uchun eng muhim va zarur tabiat in‘omidir. Havoga muntazam ravishda aralashib turadigan iflos chang o‘pkada gaz almashuviga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu insonning sog‘lig‘ini bora-bora izdan chiqarib, turli-tuman xastaliklarni vujudga keltiradi. Tabiat shunday odil mo‘jizaki, atrof-muhitni muvozanatga keltiradi. Chunonchi, chiqarilgan karbonat angidridni o‘siml iklar yutib, uni kislorodga aylantiradi, demak o‘simliklar Juuyosi, larnziy ma‘noda aytganda, havoni chang va karbonat angidriddan tozalab byeruvchi bebaho vositadir. Bunda inson o‘z atrofini o‘rab turgan iabiatni, uning o‘simliklar dunyosini ko‘z qorachig‘iday asrabgina qolmay, uni boyitishi, qo‘lidan kelganicha ko‘proq daraxt ekishi, ko‘kalamzorlashtirishga intilishi zarur degan xulosa chiqadi. Shuning uchun ota bobolarimiz daraxt ekish, bog‘-rog‘ yaratishni savobli ish deb bilishgan. Bir tup mevali daraxt ekkan kishining ikki dunyosi obod bo‘ladi, deb bejiz aytishmagan.

#### Adabiyotlar:

1. Shulga T.I. Rol stanovleniya volevoy regulyatsii v razvitii mladshego shkolnogo vozrasta: mejvuzov, sborn. trudov Psixologo-pedagogicheskiye osobennosti razvitiya lichnosti mladshego shkolnika. -Penza, 1993.
2. Wofford J.C. Experimental analysis of a cognitive model of motivation. // J.Psychol. London, - 1990. - Vol. 124, № 1. - P.87-101.
3. Vigotskiy L.S. Razvitiye visshix psixicheskix funktsiy, Sobr. sochineniy M. 1982g. t.3  
<https://art.tadqiqot.uz/index.php/art/article/view/215/214>  
<https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume02Issue12-17>

#### РЕЗЮМЕ

Ekologik tarbiyaning bosh maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof- muhit va uning muammolari haqida ongli munosabatni hamda ular bo‘yicha optimal yechimlar toppish to‘g‘risidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Shu ma‘noda maqolada maktabgacha ta‘lim muassasalarida ekologik tarbiya maqsadi tahlil qilingan.

#### РЕЗЮМЕ

Основная цель экологического образования - формирование у дошкольников осознанного отношения к окружающей среде и ее проблемам, а также знаний, навыков и умений находить для них оптимальные решения. В этом смысле в статье анализируется цель экологического образования в дошкольном образовании.

#### SUMMARY

The main goal of environmental education is to develop in preschool children a conscious attitude to the environment and its problems, as well as the knowledge, skills and competencies to find optimal solutions to them. In this sense, the article analyzes the purpose of environmental education in preschool education.